O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 3 - may 134-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi JIED uchinchi mintaqaviy hudud 8-son Tergov hibsxonasi qurish uchun Xovos tumani Turkiston massivi “Mustaqillik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududining tuman hokimligi zaxirasidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan boshqa yerlardan jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti to‘g‘risida”gi Nizom hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi “Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazolarni ijro etish muassasalarining faoliyati samaradorligini ta’minlash bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 128-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2022-yil 28-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining 2022-yil 14-apreldagi 11-377-son topshirig‘ini ijrosini ta’minlash, hibsxona obyektini boshqa hududga ko‘chirish va tegishli qurilish montaj ishlarini tashkillashtirish maqsadida Sirdaryo viloyati hududidan 5 gektar yer maydoni ajratilishida amaliy yordam berishni so‘rab”, 28/8-11-2756-sonli xat bilan qilgan murojaati, viloyatning vakolatli organlarining xulosalari asosida kelishilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5, 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 10 va 25-moddalariga asoslanib **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2022-yil 28-oktabrdagi 28/8-11-2756-son xat bilan viloyat hokimiga qilgan murojaati qanoatlantirilsin hamda viloyatning tegishli tashkilot va korxonalarining ijobiy

xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi JIED uchinchi mintaqaviy hudud 8-son Tergov hibsxonasi qurish uchun Xovos tumani Turkiston massivi “Mustaqillik” MFY hududining tuman hokimligi zaxirasidagi 1917q-konturdan A1724235017/2 raqamli 200 m x 250 m o‘lchamda jami 5,0 gektar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan boshqa yerlar yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (P.Bobojonov)ga:

Ajratilgan yer uchastkasida qurilishi rejalashtirilgan 8-son tergov hibsxonasi uchun belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazish hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorining 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, qurilish bosh boshqarmasi hamda “O‘zGASHKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda 8-son tergov hibsxonasini qurish uchun ajratilgan yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tavsiya etilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari R.Boboyev, V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Mahmudaliyev**